

## ONA TILI VA ADABIYOT

1. Qaysi qatorda so'zlar imloviy jihatdan **TO'G'RI** shakllantirilgan?

- A) namoyanda, mulohaza, nogahon
- B) taajjub, taassurot, tassarruf
- C) mujasam, muassasa, mutaxassis
- D) muofaqqat, mutasaddi, muvofiq


2. Quyida berilgan gapda **IMLOVIY XATOLIKLARNING** qaysi turlari kuzatilgan?

*Men odamlar siz aytgan narsalarni unitishlarini, odamlarning qilgan ishingizni unitishlarini bilib oldim, ammo odamlar o'zingizni qanday his qilgанингизни hech qachon unitmaslikini bilib oldim.*

1. Unli va undoshlar imlosiga oid	2. Qo'shib yoki ajratib yozish imlosiga oid	3. Asos va qo'shimchalar imlosiga oid	4. Chiziqcha bilan yozish imlosiga oid
-----------------------------------	---	---------------------------------------	--

- A) 2,4 B) 1,3 C) 2, 3 D) 1,4

3. Qaysi qatorda "**sidir**" (fe'l) so'zining izohlari **TO'G'RI** ko'rsatilgan?




- A) 1,4 B) 2,3 C) 1,3 D) 2,4

4. Qaysi javobda so'zning leksik tahlili **xato** ko'rsatilgan?


A)



B)



C)



D)



5. Quyidagi gapda qatnashgan shimchalar haqidagi **TO'G'RI** hukmni aniqlang.

*Nutqqa olib kirilgan so'z nutqning mazmuniy qurilishida bir g'ishtcha vazifasini bajarmasa, u nutq uchun ortiqcha yukdir, demakki, keraksiz bir unsurdir*

A) Gapda barcha sintaktik shakl yasovchilar ot tarkibiga qo'shilgan.

B) So'z yasovchilar uch xil turkumga oid so'z yasashga xizmat qilgan.

C) Otning lug'aviy shakl hosil qiluvchisi ravish yasovchi qo'shimcha bilan shakldoshlik xususiyatiga ega.

D) Barcha lug avry shakl yasovchi qo'shimchalar fe' Ining tarkibida qatnashgan

6. Qaysi qatorda "**chek**" so'zi "**zimma, majburiyat**" ma'nosini ifodalab kelgan?

A) Sizdan yashiradigan sir yo'q, to'yning noni mening chekimga tushgan edi.

B) U dahshatli xayollarga chek qo'yib, darhol

## Namunaviy test topshiriglari

institutga otlana boshladi.

- C) Sotuvchining qo'li-qo'liga tegmas, chek olib, odamlarga sut, kefir berardi.  
D) Shahardan chiqib, katta-kichik qishloqlarni, mayda-yirik cheklarni kesib o'tgan chang-tuproq yo'lda Hoji xola yoshgina juvon bilan boradi.

**7. Har ikkala gapda qatnashgan sifatlar haqida TO'G'RI bo'limgan hukmni aniqlang.**

I. Oftob o'chyapti. Ko'm-ko'k osmonda suzib yurgan paxtadek yumshoq bulutlar yonayotgandek lovullardi.

II. U juda dono qiz, Navoiy, Mashrab, Hofizlarni mayin, yoqimli ovozi bilan, chiroyli ohang berib juda ravon o'qiydi.

A) Har ikkala gapda sodda yasama sifat mavjud.

B) Ikkinci gapda otdan yasalgan yasama sifat qatnashgan.

C) Har ikkala gapda orttirma darajadagi sifatlar qatnashgan.

D) Barcha sifatlar aniqlovchi vazifasini bajargan.

**8. Har uchala gapda ham qatnashgan fe'shakllarini aniqlang**

I. Gunohkordan chiqsa, jahling agar, Jazolashda sabr et, bu yaxshi hunar

II. Qanoatni qo'lga kirlita olsang, oy dil, Orom dunyosida o'zing sarvar bil

III. G'arazgo'y so'ziga qulq solmagil, Agar so'zlasa ko'p, chuqur o'ylagil,

1) ko'makchi fe'l 2) soff fe'l 3) II shaxs fe'l

4) buyruq mayldagi fe'l 5) sodda yasama fe'l

6) III shaxs fe'l

A) 1,3,5 B) 1,4,6 C) 2,3,4 D) 2,4,6

**9. Quyidagi parcha haqida NOTO'G'RI hukmni aniqlang.**

Men yursam ham, tursam ham hamisha Navoiyni o'ylardim. Uning ma'nodor, aqlli

## Muallif : Rasulberdi Nazarov

ko'zlari, xushfe'l, rahmdil, olıyanob qiyofasi, asl, pok, ulug' qalbini his etardim, ko'z o'ngimda ko'rardim.

A) Uyishiq payt hollari kesimga bevosita tobelangan.

B) Sifatlovchi aniqlovchi vositasiz to'ldiruvchini aniqlab kelgan.

C) Gapda vositasiz to'ldiruvchining qaralmish bo'lib kelishi kuzatilgan.

D) Olmosh bilan ifodalangan ega uyushiq kesimga tobelangan.

**10. Berilgan gap haqidagi NOTO'G'RI fikrni aniqlang.**

Xalqimizning asrlar davomida shakllangan qadimiyl madaniyati va qadriyatlarini asrab qolishimiz uchun yosh avlodni milliy ruhda tarbiya qilishimiz lozim.

A) Gapda sodda yasama fe'l aniqlovchi bo'lib kelgan

B) Harakat nomi kesim vazifasini bajargan

C) Otlar qaralmish vazifasini bajargan

D) Gapda sifatlar aniqlovchi vazifasini bajargan

**11. Gapdagi so'zlarning mazmun va grammatik jihatdan bog'lanishi to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.**

Bizning qadimiyl va go'zal diyorimiz nafaqat Sharq, balki jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri ekanligi, o'ylaymanki, bugun keng jamoatchilik uchun sir emas.

A) qadimiyl Sharq, go'zal diyor

B) qadimiyl va go'zal, bizning diyorimiz

C) beshiklaridan ekanligi, qadimiyl Sharq

D) bizning Sharq, jahon beshiklaridan

**12. Qaysi qatorda tinish belgisi bilan bog'liq **xatolik** mavjud?**

1. Hasharda hamma ishladi , yoshlar ariq tozaladi, qizlar maydonni supurdi, kattalar mashinaga yukni ortdi.
2. Na qor, na yomg'ir, na to'fon va na bo'ron —hech narsa dovyuraklarni qodqitmadi.
3. Odamlar kasal bodaveribdi, ulardan qanchasi odaveribdi-yu, sen bu dorilarni bosib yotaveribsan-da, noinsof !
4. Menimcha, oqil va sodiq er o'z rafiqasi uchun eng bebaho bezakdir.
5. Muhtaram Umidaxon sizni tug'ilgan kuningiz bilan chin yurakdan tabriklayman.

A) 2,4 B)1,3 C) 1,5 D) 2,5

- 13. Qaysi qatorda “Asrga tatigulik kun” romani haqida **TO'G'RI** hukm keltirilgan?**
- A) Romonda Edigey Ikkinci jahon urishidan jarohati tufayli qaytadi va temiryo'lda ishlay boshlaydi.
- B) Edigey Kazangapga o'zining Sarozek bo'ylab afsonaga aylangan Karanar (Qora nor) ismli tuyansini sovg'a qiladi.
- C) Ukkubola — Edigeyning xotini. u asosan uning xohish-istiklariga bo'y sunadi. Butun hikoya davomida u Edigeyga sodiq qoladi.
- D) Edigeyning o'g'li Abutolib Ikkinci Jahon urushida qatnashadi va og'ir yarador bo'lib qaytgan olamdan o'tadi.

- 14. “Otamdan qolgan dalalar” romani haqida **TO'G'RI** hukmni aniqlang.**
- A) Aqrab olomonga boshchilik qilganligi uchun ruslar tomonidan vaxshiyarcha otib tashlanadi.
- B) Jamoliddin ketmonga Qurbon qora qirg'iz o'z yerini beradi.
- C) Asarda Dehqonquli o'z qizlariga Ruscha ism tanlab, ruslar ko'ziga yaxshi ko'rinishga harakat qiladi.
- D) Ziyodulla ismli beshinchisinf bolasi paxta dalasida uxlab qolib, halok bo'ladi.

**15. Abdulla Qahhorning “Adabiyot muallimi” hikoyasidagi **Boqijon Baqoyev** obraziga **mos keladigan** javobni toping.**

- A) Birovlarning fikrini eshitadigan , lekin o'zining bilganidan qolmaydigan ilmli shaxs.
- B) Qarindoshlarga oqibatli bo'ladi va suhabatdoshini ham zukkoligi bilan o'ziga qarata oladi.
- C) Ilmli bor, biroq o'zidan kichkina inson bilan gaplashgisi kelmaydigan kibrli timsol.
- D) O'zini aqlli ko'rsatishga uringan, ammo bilmagan narsani so'rashgani uchun suhabatni burishga harakat qilgan bilimsiz qahramon

**16. “Abulfayzxon” asari haqida **TO'G'RI** hukmni aniqlang.**

- A) Qozi nizom xonga “Bu kecha tushimda payg'ambarni ko'rdim, sizni so'rab yubordilar”, – deb, chopon kiygan edi.
- B) Ibrohimbiy vatanni dushmanlar qo'liga topshirgan qahramon sifatida gavdalaniadi.
- C) O'z qizini xon mahramligiga topshirgan Farhod otalik keyinchalik qatl qilinadi.
- D) Rahimbiy ko'zlari ko'r bo'lsa ham , nohaqliku adolatsizlikka chiday olmay, xonga qarshi isyon qilgan.

17. "Nur borki, soya bor" romani haqida

**TO'G'RI** hukmni aniqlang.

A) Romanda Sirojiddin unchalik uquvi yo'q bo'lsa ham, otasining yordami bilan tarix fakultetiga o'qishga kiradi, lekin ikkinchi kursda o'qishdan haydaladi.

B) Shoira o'z onasi sababli o'zi unchalik xohlamagan kishiga turmushga chiqadi, lekin unda ko'ngli bo'limgan uchun Sirojiddin bilan don olishib yuradi. Bundan xabar topgan

eri uyni tashlab chiqib ketadi.

C) Sherzod o'zining kursdoshi Faridaga ko'ngil qo'yadim, lekin Faridaning oilasiga ungachalik maqul kelmagani sabab Farida boshqa kishiga turmushga chiqib ketgan edi.

D) Asarda Azimjon urushda qon kechib bir ko'zdan ayrıladı, uning sevgan qizi Azimjoni kelishini uzoq kutadi, lekin Azimjonning bu holini ko'rib Abdulvohid ismli yigitga turmushga chiqib ketadi.

### **MATN BILAN TANISHGAN HOLDA QUYIDAGI SAVOLLARGA JAVOB BERING.**

I

Elektron va kompyuter texnikasi sanoati obyektlari, ta'lif va ilmiy tadqiqot markazlari to'plangan, yuqori malakali mutaxassislar, ushbu sohaga katta-katta sarmoya sarflaydigan qo'shma korxonalar faoliyat yuritadigan hududga kirib qolgan har qanday inson o'zini fantastik kino qahramonidek tasavvur etishi shubhasiz. Biroq bunday hududning borligi allaqachon haqiqatga aylanib ulgurgan. Bu makon ilm ahli tomonidan Silikon vodiysi nomi bilan yuritiladi. Silikon vodiysi (Silicon valley) nomini kaliforniyalik tadbirkor Ralf Verst o'ylab topgan. Muomalaga esa atama jurnalist Don Xofler tomonidan 1971-yilda kiritilgan. O'shanda «Electronic News» haftalik gazetasida AQSHning Silikon vodiysi mavzusiga bag'ishlangan turkum maqolalarida shu nom qo'llangandi. Nega yuqori texnologiyalar hududi Silikon vodiysi deb nomlanadi, degan savolga ham javob tayyor. Bu yerda faoliyat yuritadigan korxonalarda mikrosxemalar uchun yarimo'tkazgichlar qismlarini ishlab chiqarishda asosiy material sifatida kremniyidan foydalilaniladi. Kremniy esa inglizcha «silicon» so'zidan olingan.

II

Silikon vodiysini tashkil etish g'oyasi qator omillar tufayli yuzaga keldi. Dastavval mazkur fikr Stenford universiteti vakillari tomonidan o'rta ga tashlandi va u odatdagidek moddiy manfaatlar asosida kelib chiqqandi. Chunki ikkinchi jahon urushidan so'ng universitet budgetida mablag' tanqisligi sezila boshlandi. Shunda universitet rahbariyati takomillashish uchun sarmoyani o'ziga tegishli bo'sh 3240 hektar hududdan olishga qaror qiladi. Biroq joyni sotish mumkin emas edi. Natijada yangicha texnologik ishlanmalar bilan shug'ullanadigan kompaniyalarga yerni uzoq muddat, aniqrog'i, 51 yilga o'rtacha to'lov bilan ijara ga berish fikri tug'iladi. Keyinchalik bu makon ilm ahli tomonidan Silikon vodiysi nomi bilan yuritiladi. Kompaniyalar ko'plab yangi ish o'rinnarini tashkil etishi e'tiborga olinadigan bo'lsa, bunda Stenfordni tamomlagan salohiyat egalarining boshqa hududlarga ishga ketib qolishi muammosi ham hal etilardi. Kaliforniyada yosh, iste'dodli tadqiqotchilarni saqlab qolish uchun maxsus moddiy ko'mak dasturlari ishlab chiqilgan, biznes yuritish, ilmiy izlanishlar olib borish uchun yaxshi shart-sharoitlar yaratilgan. Shu tariqa, Silikon vodiysi iste'dodli va malakali mutaxassislariga ega Stenford universiteti atrofida jamlana boshladi.

Asta-sekin dunyoni ijobji tomonga o'zgartirish istagi bilan hududga kelgan insonlar korxona, kompaniyalarga asos solib, ularni rivojlantirdilar. Mazkur ishlarni amalga oshirishda Stenford universiteti professori Frederik Termanning mehnati va xizmatlari kata bo'lgan (hozirda uni Silikon vodiysining asoschisi deb tan olishadi). 1939 yili Terman o'zining shogirdlari Vilyam Xylett va Devid Pakkardni shu yerda qolib, o'z korxonasini tashkil etishga ko'ndiradi. Oqibatda mazkur hududda informatsion texnologiyalarga ixtisoslashgan, hozirda jahoning yetakchi, o'sha davrda esa dastlabki "Xylett-Pakkard" (Hewlett-Packard Co.) kompaniyasiga asos solindi. Bugun mazkur kompaniyada 100 mingdan ortiq xodim faoliyat ko'rsatadi. Universitetning bitiruvchilari Larri Peyj va Sergey Brin esa dunyodagi yirik qidiruv axborot tizimi «Google»ning yaratuvchilari bo'lishdi.

### III

Hozirda texnologiyalar parkida (bu vodiyning yana bir nomi) 2,5 millionga yaqin odam istiqomat qilib, ularning 25 foizi yuqori texnologiyalar sohasida ish yuritadi. Shuningdek, Karnegi Mellon, San-Xose, Santa-Klara, Stenford va Nordvestern politexnika universitetlari, 7 mingdan ziyod texnika jihozlari va dasturiy ta'minot ishlab chiqaruvchi dunyoning eng yetakchi korxonalari (Apple Inc., AMD, Dolby Laboratories Inc., Hewlett-Packard, Google, Intel, Juniper Networks, NVIDIA Corporation va b.) ham bor. Qisqacha qilib aytganda, o'ttizta shaharni o'z ichiga qamrab olgan Silikon vodiysi odamlar orasida «Mo'jizalar mamlakati» degan nomga sazovor bo'ldi. Kompyuterlashtirish jarayonini global miqyosda amalga oshirish vodiyligi mislsiz daromad keltiradi. Aytgancha, amerikalik taniqli millionerlarning katta qismi aynan shu hududda yashaydi, shuning uchun bu yerni «Millionerlar vodiysi» deb ham atash mumkin. Qiziq, ammo bir paytlar ushbu hududga «O'lim vodiysi» deb nom berishgandi, chunki 1985-86- yillarda ish jarayonida kompyuterlardan keng foydalanish ish o'rinalining qisqarishiga olib kelgan.

### IV

Silikon vodiysiga olamshumul shuhrat keltirgan, uni ulkan tafakkur va sarmoya egalarini tortish markaziga aylantirgan jihatlar talaygina. Ha, chindan ham bu mo'jizalar va uni yaratuvchilar vatanidir. Chunki bu zaminda tafakkur bilan tafakkurning, sarmoya bilan sarmoyaning tinimsiz kurashi va raqobati kechadi. Shu manzilga tushib qolgan har bir odam fantastik kino aktyori kabi faraz etadi. Bu yerda o'zining aqlga sig'mas g'oyalari, takliflari va loyihalari bilan kulgiga qolishdan qo'rqlaydigan insonlar juda ko'p. Vodiya tavakkal qilishdan, yangilik yaratish va uni hayotiy haqiqatga aylantirish uchun mablag' sarflashdan cho'chimaydilar. Texnologiyalar markazida qaysi millat vakili ekanligingiz muhim emas, balki mutaxassis sifatida o'zingiz, salohiyatingizga ishonch qay darajadaligi ahamiyatlidir. Mazkur hududda yiliga 365, haftasiga 7 kun, sutkasiga esa 24 soat ishlaydilar. Bu zaminda yuz berishi mumkin bo'lgan va ehtimol, bo'limgan narsalarga ham umid bilan qaraladi. Silikon vodiysidagi odamlar yaratilayotgan yuksak texnologiyalar hayotni ijobji tomonga o'zgatirishiga, insoniyatning keljakdagi «Raqamli texnika davri» yorug' bo'lishiga astoydil ishonadilar.

**18. Matn mazmunida aks etmagan**

ma'lumotni aniqlang.

A) Silikon vodiysining nomlanishi bevostida

*kremniy bilan bog'liq*

*B) Birinchi jahon urushidan so'ng universitet budgetida mablag' tanqisligi sezila boshlashi*

## Namunaviy test topshiriglari

**Muallif : Rasulberdi Nazarov**

Silikon vodiysini tashkil toppish sabablaridan biridir

C) Stenfordni tamomlagan salohiyatli talabalar boshqa hududlarga ishga ketib qolishi universiteti muammolaridan biri edi.

D) Silikon vodiysida ishchining qaysi millatdan ekanligi muhim emas edi.

**19.** Raqamlab ko'rsatilgan qaysi gap matnningmazmuniy tuzilishida **uslubiy xatolikniyuzaga keltirgan?**

A) II B) III C) IV D) I

**20.** Matn mazmunida aks etgan **TO'G'RI ma'lumotni aniqlang.**

A) Stenford universiteti talabalariga stipendiya yetkaza olmaganligi tufayli o'zining yerlarini sotishga majbur bo'ldi

B) Silikon vodiysining katta foyda ko'rishi kompyuterlashtirish jarayonini global miqyosda amalga oshirish sabab bo'ldi.

C) Bu vodiyya ishlaydigan xodimlar bir yilda 15 kun dam oladilar va bu kunni o'zlaribelgilaydilar.

D) "Google" tizimini Vilyam Xyulet va DevidPakkardlar ishlab chiqishdi va Silikonvodiysining yangi tarmog'ini barpo etishdi.

**21.** Matn mazmuniga mos **NOTO'G'RI**

**ifodalangan ma'lumotni aniqlang.**

A) Bu vodiyni yarataish g'oyasi dastlab universitet vakillari tashabbusi bilan o'rta ga tashlangan edi

B) Amerikalik hamda yevropalik millionerlarning aksariyati shu vodiya istiqomat qiladi, shuning uchun "Mo'jizalarvodiysi" ham deyiladi.

C) Bir qancha universitet va korxonalar daniborat ushbu vodiylar o'ttizta shaharni ham o'zichiga oladi.

D) Malakali kadrlarni qo'yib yubormaslikuchun Stenford universiteti kompaniyalar gaijaraga yerva bitiruvchi talabalarga yetarli sharoitlarnita'minlab bordi.

**22.** Matn haqida **TO'G'RI** hukmni aniqlang.

A) Vodiyya ishlaydigan insonlar tavakalchi emas.

B) Bu vodiyya yangilik qilayotgan olimlar buolamda sodir bo'ladigan narsalargagina umidqilishadi, xolos

C) Bu vodiyni tashkil etishda professor Federik Termanning mehnati katta bo'ldi.

D) Vodiylar ahlining yarmi texnologiyalar sohasida faoliyat yuritadi va daromadlarini yiliga oshirib borishadi

## **IMTIHON KUNI (HIKOYA)**

Jordanlar xonardonida to ularning o'g'li Diki o'n ikki yoshga to'ladigan kunga qadar imtihon haqda og'iz ochishmagandi. Aynan uning tug'ilgan kunida missis Jordan ilk bora o'g'li yonida imtihon haqida so'z boshladi, uning tovushidagi xavotir ohangi esa oila boshlig'ining jahlini chiqardi. – Buni esdan chiqar! – dedi u qat'iyat bilan xotiniga. – Diki bu imtihondan o'tib oladi. Ular nonushta qilib o'tirishardi, bola qiziqish bilan boshini likopchadan ko'tardi. Diki ziyrak nigohli, sarg'ish sochlari tik o'sgan, harakatlari chaqqon o'smir edi. Kutilmagan tortishuvga aynan nima sabab bo'lganini u anglab yetolmadi, biroq u bugun o'zining tug'ilgan kuni ekanini bilar va avvalo xonadonda ahillik bo'lishini istardi. Narsalar saqlanadigan chog'roq xonaning qayeridadir unga atalgan, tasmalar bilan o'ralgan paketlarda sovg'alar ochilishini kutib yotardi, tor oshxonadagi devorga mahkamlangan, avtomatik boshqaruqli pechda esa shirinlik tayyorlanayotgandi. U tug'ilgan kuni xursandchilik bilan

o'tishini xohlardi, ammo onasining ko'zidagi nam va otasining xo'mraygan nigohi uning ertalabki kayfiyatiga monand emasdi.

– Qanaqa imtihon haqida gapiryapsizlar? – so'radi u.

Onasi ko'zlarini yerga qadadi. – [1] Bu shunchaki aqliy qobiliyatlar sinovi, uni hukumat o'n ikki yoshga to'lgan bolalar ustida o'tkazadi. Sening oldingda ham kelgusi haftada shunaqa sinov turibdi. Lekin buning uchun xavotirlanmasang ham bo'ladi.

– Xuddi maktabdagi imtihonga o'xhash bir sinov, demoqchimisiz?

– Shunga o'xshaganroq narsa, – otasi stoldan turayotib tasdiqladi. – Bor, yaxshisi, komikslaringni o'qi. Bola mehmonlarga atalgan xonaning burchagiga – go'dakligidan beri «o'ziniki» bo'lgan go'shaga sekin yo'l oldi. U stellajdan eng yuqorida yotgan komiksni oldi, lekin, ko'rinish turibdiki, turfa rangli ajoyib suratlar uni qiziqtirmayotgandi. Shunda u deraza oldiga borib, qalin tuman pardasiga ma'yus tikila boshladi. – Nega yomg'ir aynan bugun yog'adi? – so'radi u. – Ertaga yog'sa bo'lmasmidi? Otasi oromkursida o'tirib organicha, hukumat gazetasini asabiy holda o'qiyotgandi. – Yog'yaptimi, demak – shunday bo'lishi kerak, boryo'g'i shu. Yomg'irdan keyin maysalar yaxshi o'sadi. Nega, ota? – Chunki o'sadi, tamomvassalom. Diki peshanasini tirishtirdi. – Bundan tashqari, nega u yashil, maysa? – Hech kim bilmaydi, – deya cho'rt kesdi otasi, biroq shu ondayoq qattiq gapirganiga afsuslandi. Tushdan keyin ular Dikining tug'ilgan kunini nishonlashdi. Yashnab ketgan onasi o'g'liga chipor o'ramdagi sovg'ani topshirdi, hatto otasi ham yuzida tabassum bilan uning boshini silab qo'ydi. Diki onasini o'pib qo'ydi va jiddiy qiyofada otasi bilan qo'l siqishdi. Keyin o'n ikkita sham o'rnatilgan tort olib kelindi, shu bilan bayram tugadi. Oradan bir soat o'tib, Diki deraza oldida o'tirar va quyosh nurlari bulutlarni yorib o'tishga behuda urinishini tomosha qilardi. – Ota, – so'radi u, – quyoshgacha uzoqmi? – Besh ming mil, – javob berdi otasi. ...Nonushtadan so'ng Diki yana onasining ko'zlaridagi namni payqadi. Uning ko'zyoshlari bola oldida turgan imtihon bilan aloqadorligini, toki otasi to'satdan shu mavzuni ochmagunicha sezmadni. – Quloq sol, Diki, – deya boshladi u, endi negadir ancha xo'mraygan qiyofada. – Bugun sening oldingda bir ish bor. – Bilaman, dada. Umid qilamanki... – Umuman, hech nimadan xavotirlanmasayam bo'ladi. Har kuni bunaqa sinovdan minglab bolalar o'tishadi. Sening qobiliyatlarining qanaqa ekanligini hukumat bilmoqchi, Diki. Bor-yo'g'i shu. – Maktabda men yaxshi baholar olyapman, – dedi Diki negadir ishonchsziroq tarzda. – Bu yerda boshqacha. Bu o'ziga xos tekshiruv. Tushunasamni, senga ichish uchun bir suyuqlik berishadi, keyin esa maxsus mashina o'rnatilgan xonaga kirasan... – U qanaqa suyuqlik? – so'radi Diki. – E, shunchaki. Ta'mi yalpizli kulchaga o'xhashroq. Ular sening haqiqatni so'zlayotganingga amin bo'lishmoqchi. Hukumat sening rostgo'yligingga shubha qilganidan emas bu, lekin shunaqa suyuqlik ichish ishonchni kafolatlaydi. Dikining yuzida sarosima va qo'rquv aks etdi. Onasiga qaradi, ammo u o'z chehrasida tabassumga o'xhash bir nima namoyon etishga ulgurdi. – Hammasi yaxshi bo'ladi, – deya o'g'lini ishontirishga urindi u. – Albatta! – gapni ilib ketdi otasi. – Sen ajoyib bolasan, Diki, sinovdan o'tasan. Keyin esa biz uyga qaytamiz va bu voqeani nishonlaymiz. Yaxshimi? – Ha, – qo'shildi Diki. Ular Hukumat Maorif Xizmati binosiga belgilangan soatdan o'n besh daqqaq oldin kirib borishdi. Marmar plitalar ustidan yurib, ustunli ulkan vestibyulni kesib o'tishdi, ark ostidan o'tib, lift bilan to'rtinchi qavatga ko'tarilishdi. U yerda, to'rt yuz to'rtinchi xonaning ro'parasida, chiroyli stol ortida belgisiz mundir kiygan bir yigit o'tirardi.

Uning qo'lida shu soatga belgilanganlar ro'yxati tushirilgan yondaftar bor edi; yigit Jordanlarni «J» harfidan qarab tekshirib qo'ysi va keyin kirishga ruxsat berdi. To'rt yuz to'rtinchchi xona sud binosini eslatardi: u mahzun, sovuq va rasmiyatichilikka monand bo'lib, unda qator metall stollar va uzun skameykalar o'rnatilgandi. U yerda allaqachon kelib ulgurgan otalar o'z o'g'illari bilan navbat kutib o'tirishardi; lablari nozik bir qorasoch ayol esa anketalar tarqatayotgandi. Mister Jordan anketani to'ldirib, uni ayolga qaytarib berdi. Keyin Dikiga yuzlanib, dedi: – Endi ko'p kutmaymiz. Sening ismingni aytib chaqirishganida, to'ppa-to'g'ri xonaning oxiridagi anovi eshikdan kiraverasan. U ayni o'sha eshik joylashgan tomonni barmog'i bilan ko'rsatdi. Qayerdadir yashirin joylashgan ovoz kuchaytirgich jonlandi – birinchi familiya o'qildi. Bolalardan biri istamaygina otasidan ajralib, xona oxiridagi eshik tomon sekin yo'nalganini Diki ko'rdi. Beshta kam o'n birda Jordan familiyasi o'qildi.

– Omad senga, o'g'lim, – dedi otasi Dikiga qaramasdan. – Tekshiruv tugagach, men seni olib ketishga kelaman. Diki eshikka borib, uning dumaloq tutqichini buradi. U kirgan xona nimqorong'i bo'lib, bola o'z salomiga alik olgan kulrang mundirli amaldorni zo'rg'a ko'rdi. – O'tir, – dedi amaldor xushmuomalalik bilan. U o'zining stoli yonida joylashgan baland stulga ishora qildi. – Sening isming Richard Jordan, shundaymi? – Ha, ser. – Sening tasnif raqaming 600-115. Mana buni ich, Richard. U stoldan plastmassa stakan olib, bolaga uzatdi. Stakandagi suyuqlik yog'sizlantirilgan sutga o'xshar va ta'mi otasi aytgan yalpixli kulchaga salgina o'xshardi, xolos. Diki uni oxirigacha ichib, amaldorga bo'sh stakanni qaytarib berdi. Bolani yengib bo'lmas uyqu bosa boshladidi; bu paytda amaldor bir varaq qog'ozga allanimalarni yozardi. Keyin u soatiga qarab qo'yib, o'rnidan turdi; uning yuzi Dikining yuzi bilan bir xil balandlikda bo'lib qoldi. Amaldor ko'krak cho'ntagidan avtoruchkaga o'xhash qandaydir moslama chiqarib, bolaning ko'ziga yorug'lik tushirdi. – Juda yaxshi, – dedi u. – Men bilan yur-chi, Richard. U Dikini xonaning burchagiga boshlab bordi, u yerdagi hisoblash mashinasi oldida bittagina tirsakli yog'och kreslo turardi. Chap tomondagi tirsak qo'yish joyiga mikrofon mahkamlangandi; bola kresloga o'tirganida, mikrofon aynan uning og'ziga to'g'ri kelib qoldi. – Endi xotirjam bo'lib ol, Richard. Senga turli savollar beriladi, sen esa ularni yaxhilab o'yab ol. Keyin mikrofonga qarab javob ber. Boshqa hammasini mashinaning o'zi bajaradi. – Yaxshi, ser. – Endi esa seni yolg'iz qoldiraman. Qachonki boshlash mumkinligini his qilsang, mikrofonga: «Tayyorman» deya bir so'z aytsang bas. – Xo'p, ser. Amaldor uning yelkasiga qoqib qo'yib, chiqib ketdi. Diki: – Tayyorman, – dedi. Mashinaning chirog'i yondi, mexanizmning g'ijillashi eshitildi. Keyin ovoz keldi: – Berilgan raqamlar qatorini to'ldir: bir, to'rt, yetti, o'n. ...Er-xotin Jordanlar uylaridagi mehmonlarni kutish xonasida bir so'z demasdan o'tirishardi: ular qandaydir taxmin bildirishdan hayiqishardi. Tushdan keyingi to'rtga yaqin telefon jiringlab qoldi. Ayol go'shakka qarab harakat qildi, biroq eri chaqqonlik qilib qoldi. – Mister Jordan? Go'shakdagi gapiruvchi ovozining ohangi keskin, rasmiy edi. – Ha, eshitaman. – Hukumat Maorif Xizmatidan gapiryapmiz. Sizning o'g'lingiz Richard M. Jordan, tasnif raqami 600-115, hukumat imtihonidan o'tib bo'ldi. Sizga afsus bilan shuni ma'lum qilamizki, uning aqliy rivoji hukumat tomonidan o'rnatilgan – «Yangi kodeks»ning 5-bo'limi 84-moddasida ko'rsatilgan darajadan oshib ketgan... [2] Xonaning narigi burchagidan ayolning bo'q'iq chingirig'i eshitildi, qarchi u hech nimani eshitmagan bo'lsa-da, barchasini erining yuz ifodasidan anglagandi. – ...Siz telefon orqali ma'lum qilishingiz mumkin, – go'shakdagi ovoz davom etardi. – Uning jasadi hukumat tomonidan dafn etilishini xohlaysizmi, yoki

o'zingiz uni alohida qabrga dafn etishni ma'qul ko'rasizmi? Agar dafn ishlari bilan hukumat shug'ullangan taqdirda, uning narxi o'n dollarni tashkil etadi.

**23.** Asarning umumiy mazmunidan kelib chiqqan holda **TO'G'RI** hukmni aniqlang.

A) *Ota-onan Jordan o'g'li Richardni o'z xohishlari bilan hukumat binosiga tashlab qaytishadi, vahlanki, o'g'llari imtihondan o'tolmasligini bilishgan edi.*

B) *Richerdning otasi o'z o'g'lining rivojlanishi unchalik yaxshi bo'lmasa ham, u bilan shug'ullanishga vaqt topolmas edi.*

C) *Richerdning tug'ilgan kuni bo'lganligi sababli ota-onasi u bilan imtihon haqida gaplashib olisholmagan edi.*

D) *Richerdning rivojlanishi davlat belgilagan tamoilga to'g'ri kelmagani sababli o'ldirib yuborildi.*

**24. [1] raqami bilan ajratib ko'rsatilgan gapda qanday uslubiy ma'no ifoda etilgan?**

A) *kinoya, kesatiq* B) *qo'rquv, hayajon*

C) *alam, achinish* D) *kibr, jahli*

**25.** Hikoyadan kelib chiqadigan **umumiy xulosani** aniqlang.

A) *Har bir bola davlatning nazorati ostida bo'lishi kerak.*

B) *Savodsiz kishilarning davlatga foydasi*

*tegmaydi.*

C) *Hukumat doim xalqni bir xil ushslashga harakat qiladi, ularning rivojlanishini xohlamaydi.*

D) *Kishi ilmsiz, beparvo bo'lsa, uning hech kimga keragi yo'q.*

**26. [2] raqami bilan ajratib ko'rsatilgan qismda tasvirlangan qahramon holati **qaysi javobda to'g'ri izohlangan?****

A) *Og'lini imtihondan o'tganini eshitgan kishi*  
B) *Farzandini yana qayta ko'rolmasligini bilib, qo'rquvga tushgan ayol.*

C) *Yurak-yuragidan farzandi uchun joni achigan, lekin buni aytolmagan inson.*

D) *Yomon xabarni sezib yuragi bezillab, ko'ziga yosh olgan ona*

**27.** Hikoya mazmunidan kelib chiqqan holda hukumat nima sababdan bolalarni 12 yoshdaa imtihon qilishini aniqlang.

A) *Rostgo'yligini tekshirish uchun*  
B) *Bola sog'ligidagi muammolarni bilish uchun.*

C) *Insonlarni qo'lga olish uchun*

D) *Ota-onadan qo'shimcha pul undirish uchun*

## **G'AZALNI O'QING VA QUYIDAGI TOPSHIRIQLARNI BAJARING.**

\*\*\*

1. Bir qamar siymoni ko'rdim baldayi Kashmirda, Ko'zları masxur-u yuz jodu erur tasxirda.

2. Zarra-zarra zar sochar boshig'a har kun oftob, Subh kelgach, kecha yotib chashmayi iksirda.

3. Bir ko'rib chohi zaqan Xorut ila Morut ikov, Chohi Bobil ichra qolmishlar bo'lak tadbirda.

4. Lam'ayi qiyg'och ko'zidin aning barqi nigoh, Tezlik javharlari gar bo'sa har shamshirda.

5. Qoshi uzra xolining asroridin bir nuqtadur, «Surayi Nun» o'qudim payvasta har tafsirda.

1. **balda-** Shahar

2. **tasxir-** egallash , bo'ysunish

3. **lam'a-** shula, nur

4. **payvata-**tutash, ketma-ket

5. **sahv-**xato

6. Forig' ermas hech kim ul dilraboning ishqidin,  
Zulfiga dilbastalig' har bir juvon-u pirda.
7. Aydim: «Ey, jon ofati, zulfiingga bo'lmisham asir!»  
Aydi: «Bu savdoni qo'y, umring o'tar zanjirda!».
8. «Nuqta lab ustida bezodur», dedim, aydi kulib:  
«Sahv qilmish kotibi qudrat magar tahrirda».
9. Aydi: «Ey bechora, qilding na uchun tarki vatan?»  
Man dedim: «G'urbatda Furqat bor ekan taqdirda!».

**28. G'azal haqida TO'G'RI hukmni toping.**

- A) *G'azalda oshiqona ruhiyat hasbi hol tarzida birligan.*
- B) *G'azal ijtimoiy-falsafiy ruhda bitilgan bo'lib, lirik qahramon va zohidning o'zaro suhbati asosida qurilgan.*
- C) *G'azal falsafiy-didaktik ruhda bitilgan bo'lib, pand-nasihat ruhi ustunlik qiladi.*
- D) *G'azal hayotiy voqealar asosida tuzilgan, axloqiy ruhga ega.*

**29. G'azalda qaysi tasvir mavjud ?**

- A) *Oshiq holati Xorut ila Morut obraziga qiyoslangan.*
- B) *Yorning jodu ko'zlari Kashmir shahriga qiyoslangan.*
- C) *Yor quyoshga tashbeh qilingan.*
- D) *Har kim yor ishiga asir bo'lgan.*

**30. G'azal haqida NOTO'G'RI hukmni aniqlang.**

- A) *Yor yuzini ko'rgan Xorut va Morut Bobul qudig'ida hech narsa qililmasdan hayron qolgani aytiladi.*
- B) *Nafaqat yorning o'zi, balki uning xoli ham sirli ekanligi bayo qilingan.*
- C) *Yorning nigohi oshiqni xuddi shamshir kabi*

*yaralagani ifodalangan.*

*D) Oshiqning yor sochlariga asir bo'lgani aytib o'tilgan.*

**31. G'azal baytlari haqida TO'G'RI hukmni toping.**

- A) *1-baytda yorning fatton ko'zlari o'z oshuftakorligi bilan sehr-jodu o'lkasi bo'lmish Kashmirni ham fath etganligi aytilgan.*
- B) *2-baytda oftob yor chiroyiga rashk qiladi, shu sabab uning boshidan nur sochishi bayon qilingan.*
- C) *5-baytda yorning qosh-u ko'zini ko'rgan har qanday kishi o'ylab qolishi va "Nun" surasini o'qishga tushishi aytilgan.*
- D) *8-baytda oshiqning labi ustidagi xolini alloh bilib turib qo'yanligi va bu xolga lirik qahramon oshiq bo'lganligi bayon qilingan.*
- 32. G'azalda qo'llanilgan san'atlar haqida XATO hukmni toping.**
- A) *8 -baytda istixroj san'ati yuzaga kelgan*
- B) *2-baytda tashxis san'atidan foydalanilgan.*
- C) *9-baytda iyhom san'ati yuzaga kelgan.*
- D) *5-baytda talmeh san'atidan foydalanilgan.*

Gaplar ( 33, 34, 35) va sintaktik tahlilga oid izohlar ( A – F ) ni o‘zaro to‘g‘ri moslashtiring.

<p>33. Biz ertalabki poezddan qolmaslik uchun shoshilib chiqib ketayotgan edi.</p> <p>34. Imtihon yaqin bo‘lganligi uchun endi qattiq o‘qishga to‘g‘ri keladi.</p> <p>35. Qizim, eshikka qaradingmi, kim kelgab ekan? – Dugonam.</p>	<p>A)atov gap B)shaxsi (egasi) umumlashgan gap C)to‘liqsiz gap D)ikki bosh bo‘lakli gap E)shaxsi (egasi) noma’lum gap F)kiritmali gap</p>
--	---

36. Har ikkala so‘z so‘z bilan shakldoshlik hosil qiluvchi leksemani aniqlang.

<b>So‘z ma’nosi:</b> <i>nafas, orom</i>	Javob: _____	<b>So‘z ma’nosi:</b> <i>kosiblikda olovni purkovchi moslama</i>
---	--------------	---

**37. Berilgan gapda qo‘llanishi kerak bo‘lgan tinish belgilarinining TO‘G‘RI ketma- ketligini yozing.**

Hind donishmandi shunday naql qiladi Oqilona suhbatlashishning sharti ikkita yoqimli gapir xushomad qilma faxrlanib so‘zla maqtama

Javob : \_\_\_\_\_

**38. orqali, tufayli, uchun ko‘makchilari bilan og‘zaki nutqda ma‘nodoshlik hosil qiluvchi qo‘srimchani aniqlang.**

Javob : \_\_\_\_\_

**39. Gapni sintaktik tahlil qiling va qaysi gap bo‘lagi uyushganini yozing.**

*Kunlardan bir kuni Durroj: «Men tuzoqqa tushdim!» —deb sherni aldadi. Sher o‘zining aldanganini bilib: «Meni aldamagil, yolg‘onchidan el nafratlanadi», — desa ham, Durroj qulog solmas, yolg‘onchilikni qo‘ymas edi.*

Javob: \_\_\_\_\_

**40. Gapdagi so‘zlarning mazmunan va grammatik jihatdan bog‘lanishlarni tahlil qiling.**

*Bu mukofotning qadri farzandlarimizning – har qanday jamiyatning eng zaif ammo siz hali anglab ulgurmagan eng buyuk xazinasi bo‘lmish bolalarimizning kulgesi va salomatligi bilan o‘lchanadi.*

a) gapda ajratib ko‘rsatilgan so‘z **tobelanib bog‘langan** so‘zni yozing.

Javob: \_\_\_\_\_

b) gapdagi ajratib ko‘rsatilgan so‘z bilan **teng munosabatda** bog‘langan so‘zni yozing.

Javob: \_\_\_\_\_

**41. Berilgan gaplarni grammatik jihatdan bog‘lanishini aniqlang.**

Uzoq yillardan buyon Amir Temir nomi buyuklar qatorida tilga olinadi, unga xiyonat qilgan, uni

aldagan Amir Husayinni esa hech kim eslamaydi.

a) birinchi va ikkinchi gap qanday vosita yordamida bog'langan?

**Javob:** \_\_\_\_\_

b) gapda ko'makchi qaysi so'zga bog'lanib kelgan.

**Javob:** \_\_\_\_\_

42. She'riy parchaning qofiyalarini tahlil qiling va yozing.

*Azal naqqoshi tarh aylarda gul bargi namudorin,*

*Magar pargor qildi bulbuli sargashta minqorin.*

a) qofiyadosh so'zlardagi raviyni yozing.

**Javob:** \_\_\_\_\_

b) qofiyaning qaysi turi shakllantirgan?

**Javob:** \_\_\_\_\_

**43. She'riy parchada ajratib ko'rsatilgan so'zlar asosida qanday she'riy san'atlar yuzaga kelgan**

*La'lu g'amzang birla baskim nuktadon ustodsen,*

*Bir nafas borsen **Masiho**, bir zamон **jallodsen**.*

a) birinchi she'riy san'at

**Javob:** \_\_\_\_\_

b) ikkinchi she'riy san'at

Javob: \_\_\_\_\_

**44. Quyidagi misra mazmunini tahlil qiling va savollarga javob yozing.**

Yeti meni o'Iturgali oxir hijron

O'Iturgali qo'yma meni qutqar, ey jon

Oxir meni qutqar bu firoq asru yomon

Hijron ,ey jon asru yomon oh-u fig'on

a) ushbu she'riy atama [san'at] nomini yozing.

**Javob:** \_\_\_\_\_

b) ushbu atama izohini aniqlang.

**Javob:** \_\_\_\_\_

45. ESSE

Quyidagi vaziyat yuzasidan o'z munosabatingizni yozma bayon qiling.

*Ayrimilar turli shoular va yutuqli o'yinlar odamlarning bir-biriga bo'lgan ishonchini sindiradigan degan fikrda, ba'zilar esa bunday o'yinlarning afzalligini aytishadi.*

• Fikr-mulohazalaringizni publisistik uslubda bayon qiling.

• Fikrlaringizni mantiqiy izchillikda, adabiy til me'yorlariga amal qilgan holda ifodalang.

Esse uch tarkibiy qismdan iborat bo'lishi lozim:

I. Kirish. Essening kirish qismini yozishda quyidagilarga amal qiling:

1) kirish qismi ikki-uch jumladan iborat bo‘lishi lozim;

2) berilgan vaziyat matnini aynan ko‘chirmang.

II. Asosiy qism. Essening asosiy qismini yozishda quyidagilarga amal qiling:

1) asosiy qism kamida uchta xatboshidan iborat bo‘lishi lozim, har bir xatboshida tomonlarning qarashlari va shaxsiy qarashlaringizni batafsil yoriting;

2) berilgan vaziyat yuzasidan turli qarashlarni hayotiy misollar bilan dalillang;

3) shaxsiy mulohazalariningizni batafsil va dalillar asosida yoriting;

4) bayon qilinayotgan barcha fikr-mulohazalar faqat mavzu doirasida bo‘lishi lozim.

III. Xulosa. Essening xulosa qismini yozishda quyidagilarga amal qiling:

1) asosiy qismda ifodalangan fikr-mulohazalarni umumlashtiring;

2) xulosa ikki-uch jumladan iborat bo‘lishi lozim.

DIQQAT! Esse uchun reja tuzilmaydi, epigraf qo‘yilmaydi.

[24 ball]



Namunaviy test topshiriglari

Muallif : Rasulberdi Nazarov

---

---